



O'QUVCHILARDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH HISSINI QAROR TOPTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yuldasheva Maloxat Erkinovna

Qo'qon davlat universiteti-dotsent, PhD

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini shakllantirishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. O'smirlik davriga xos psixofiziologik va ijtimoiy omillarning o'quvchi shaxsiga ta'siri, o'ziga ishonchning rivojlanishida oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda ishonchsizlik hissining kelib chiqish sabablari hamda uni bartaraf etishning psixologik-pedagogik yo'llari ko'rsatib berilgan. Muallif tomonidan o'qituvchi va ota-onalarga o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quvchi shaxsi, o'ziga ishonch, o'smirlik davri, psixologik rivojlanish, ijtimoiy muhit, motivatsiya, tarbiya, pedagogik ta'sir, shaxs kamoloti.*

Hozirgi kundagi dunyo tamaduning jadal rivojlanishi va yangicha mazmun kasb etishi psixologiyaning murakkab muammosi bolgan shaxs muamosining yangicha qiyofa, yangicha faoliyat, yangicha xarakter kabi psixik xususiyatlar bilan namoyon bo'lmoqda. O'quvchi shaxsining psixik xususiyatlari ham ilm-fan, texnika, kommunikatsiya tarmoqlarining jadal taraqqiyoti natijasida keskin muammolarni keltirib chiqarmoqda. Psixologiyada o'quvchilarning murakkab psixik davri o'smirlik g'oyat muammoli davr sifatida tavsiflanadi.

O'quvchilar psixologiyasining асосий ва марказий муаммоси o'quvchini psixik jihatdan o'sishi, unga xos xususiyat va qonuniyatlarini yoritib berishdan iboratdir.

V.N.Myasishchev insonning psixik rivojlanishi uning atrof voqelik va eng avvalo boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlari tizimining murakkablashib, kengayib borishiga bog'liq, bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu g'oyaga asosan o'quvchi shaxsining ijobiy rivojlanishi va ijtimoyillashuvi ham uning yon-atrofidagi odamlar bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi.

O'quvchilarning murakkab psixik davrini xarakterlovchi psixofiziologik xususiyatlardan biri bo'lgan garmonal jadallashuvning natijasida ularning xarakter va xulqida turli o'zgarishlar kuzatiladi. Bu o'zgarishlar hissiy emotsiyalarning yorqinligi, beqarorligi, o'ziga nisbatan talabchanlik, mustaqillikga intilish, menini namoyish qilish hamda o'zini anglamagan holda o'z kuchiga ishonchsizlikning namoyon bo'lishida kuzatiladi.

Amaliy psixologiyaning muhim qonuniyatlaridan biri bolgan "Qaytish" qonuniga muvofiq aql o'ylaganini jism bajaradi. Ya'ni inson biror-bir narsaga qattiq ishonar ekan



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



aql va idrok bu ishonch asosida butun jism va organizmni dasturlashtiradi. Shu dastur asosida esa insonning barcha psixikasi va fiziologiyasi faoliyat olib bora boshlaydi. Ana shu qonunga muvofiq o'quvchilarda ham aql idrokni tarbiyalash zarurati mavjuddir. Bu davrda ular aniq va mazmunli fikrlashga mustaqil qodir emaslar va ko'p hollarda atrofdagilarning ko'magiga va ishonchiga muxtojdir.

O'quvchilarda ishonchsizlik xissi ko'p hollarda muammo sifatida uchrab turadi. Bu ishonchsizlik faoliyatga kirishish ya'ni o'qish jarayoni, jismoniy faollik, boshqalar bilan munosabatlarda o'z aksini topadi.

Psixolog K.A. Gel'vetsiy ta'limotiga ko'ra, hamma odamlar aqliy va axloqiy taraqqiyot uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. SHuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Olim Inson psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Yuqoridagi ta'limotga kora o'quvchilarning ijobiy xulqini rivojlantirish hamda o'z-oziga ishonch asosida ularda o'qishga va faoliyatning boshqa turlariga motivni shakllantirish bu u bilan faoliyat olib borayotgan kattalarga bog'liq jarayondir. O'quvchilarda o'ziga nisbatan ishonchni tarbiyalash murakkab jarayon va uzoq davom etishi bilan xarakterlanadi.

O'quvchilarda o'z-ozida ishonch xissini tarbiyalashda avvalo o'quvchi y'ani bola shaxsini xurmat qilish masalasi g'oyat muhimdir. Rus psixologi A.S.Makarenko "Agar mendan biror kishi: siz qisqa formulada o'z pedagogik tajribangiz mohiyatini qanday qilib ta'riflab berolgarsiz, deb so'rasa men: insonga iloji boricha ko'proq talab qo'yish va uni iloji boricha ko'proq talab qo'yish va uni iloji boricha hurmat qilish kerak, deb javob bergan bo'lar edim" degan edi. O'quvchilarni o'zaro munosabatlarda pedagoglar, jamoadoshlari, ota-onalari tomonidan xurmat qilinishi ularda o'ziga ishonch, atrovdagilarga nisbatan esa intilishni ya'ni munosabatlarda faollikni vujudga keltiradi. Aksincha o'quvchi shaxsini xurmat qilmaslik, unga nisbatan e'tirof etilmaslik xissini shakllantiradi. E'tirof bu o'quvchining qadr-qimmatini tan olish demakdir. O'quvchilarni doimiy xaqorat qilish, kamsitish, mazax qilish, topshiriqni ishonmaslik, doimiy past baholar qoyish ularda o'ziga ishonchsizlik va jamiyatning unga bergan maqomiga odatlanish, ko'nish ya'ni rozilik xissini rivojlantiradi. Ko'p hollarda esa bu ularda ruhiy buzilish yani delenkivent xulqni vujudga kelishini ta'minlovchi omilga aylanib qoladi.

Komil insonni tarbiyalashda erishilgan amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki o'quvchilarda nafaqat barcha yoshdagi insonlarda boshqa bir shaxsga nisbatan taqqoslash eng yomon xodisa va yoqimsiz tuyg'udir. O'quvchilarda taqqoslashning taengdoshiga nisbatan amalga oshirilishi ularda salbiy beqaror xislarni shakllantiradi. O'quvchilarni o'ziga bolgan ishonchini tarkib toptirishda bu qoidaga



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



amal qilish kerakligini unutmaslik kerak. Pedagoglar o'quvchilar bilan munosabat o'rnatayotganda o'ta ehtiyotkor bo'lishlari kerak.

O'quvchilarda o'z-oziga ishonch xissini rivolantirishda o'qituvchi va ota-onalarga quyidagi tavsiyalarga amal qilishni ta'kidlagan bo'lar edik:

- xech qachon boshqa shaxs bilan taqqoslamaslik, ayniqsa tengdoshi bilan;
- faoliyatga da'vat qilishda uning boshqalardan kam emasligini ta'kidlang;
- o'quvchi shaxsining ustun bo'lgan ijobiy tomonlarini topib maqtang;
- imkoniyatiga mos bo'lgan topshiriqlarni berishga xarakat qiling va topshiriqni bajarishda uni nazorat qilmang! Chunki unga avvalo o'zingiz ishonishingizni, u faoliyatni bajara olishiga qattiq ishonishingizni isbotlang;
- o'quvchiga ishonishingizni tez-tez jiddiy ohangda takrorlab turing;
- faoliyatini rag'batlantiring.

Yuqoridagi tavsiyalar asosida o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatilganda, unda o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqillik, o'qish jarayonida faollik va dinamik o'zgarishlar kuzatiladi.

Inson shaxsi o'z mohiyati bilan ijtimoiy zotdir. SHaxsdagi barcha psixik xususiyatlarning ijodiy faolligining rivojlanish manbaalari uning tevarak atrofdagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi determinlashgan (sababiy bog'liqlikda) bo'lib ijtimoiy turmush bilan bog'liqdir. SHaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Bu kelajakda insonning psixik xususiyatlari, ya'ni uning axloqiy sifatleri, xarakteri, irodaviy xislatleri, qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini tashkil topishiga ta'sir qiladi. Demak o'quvchilarda ham ijobiy muhit asosida o'ziga bo'lgan ishonchni barqarorligini ta'minlash mumkin deb xulosa qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
3. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M.M., To'ychiyeva S.M. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
4. Myasishchev V.N. Psixologiya otnosheniy. – Moskva: Institut prakticheskoy psixologii, 1995.
5. Makarenko A.S. Pedagogik poema. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988.
6. Gelvetsiy K.A. Ob ume. – Moskva: Mysl, 1974.
7. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
8. Bojovich L.I. Lichnost i yeye formirovaniye v detskom vozraste. – Sankt-Peterburg: Piter, 2008.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



9. Kon I.S. Psixologiya yunosti. – Moskva: Prosveshcheniye, 1989.
10. Raximov A.X. Shaxs psixologiyasi va tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2017.